

Date: 27th March-2025

PEDAGOGIK FANLARNI O'QITISHDA O'QUV-DIDAKTIK VOSITALARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI.

Qurbonova O'Imasoy Usmonovna

BuxDPI, Pedagogik ta'lim kafedrası, p.f.f.d. (PhD), dotsent.

uuqurbonova@gmail.com

+99893-456-07-81

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'quv vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari, ulardan foydalanishning ijobiy tomonlari, dars samaradorligiga erishish usullari haqida to'xtalib o'tilgan. Mazkur maqoladada zamonaviy o'quv didaktik vositalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlaridan foydalanishning ijobiy tomonlari, mashg'ulot samaradorligiga erishish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, didaktik vosita, didaktika, elektron resurslar, elektron kitob, pedagogik texnika, ma'lumot, o'quv axboroti, texnologiya.

Abstract: This article discusses the possibilities of effective use of modern educational tools, the positive aspects of their use, and methods for achieving lesson effectiveness. This article discusses the possibilities of effective use of modern educational didactic tools in the educational process, the positive aspects of their use, and methods for achieving lesson effectiveness.

Keywords: educational process, didactic tool, didactics, electronic resources, electronic book, pedagogical techniques, information, educational information, technology.

Annotation: This article discusses the possibilities of effective use of modern educational tools, the positive aspects of their use, and methods for achieving lesson effectiveness. This article discusses the possibilities of effective use of modern educational didactic tools in the educational process, the positive aspects of their use, and methods for achieving lesson effectiveness.

Keywords: educational process, didactic tool, didactics, electronic resources, electronic book, pedagogical techniques, information, educational information, technology.

KIRISH. Hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalari oldiga ta'lim-tarbiya berish sharoitlarini yaratish va takomillashtirib borish bilan bir qatorda talabalarning qiziqishlari, ehtiyoji, hududiy xususiyatlar hamda ishlab chiqarish talablariga qarab kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

“2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan oliy ta'limga jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish, modernizatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan yuqori talablarni qo'ymoqda... » [1]. Ushbu yo'nalishda jumladan, pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali undagi bor imkoniyat va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularda bilimlarni mustaqil egallash, kelajakda



muammoni mustaqil ravishda hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlari ham shakllanishi talab etiladi.

Bugungi kunda o'qituvchi va talabaning samimiy o'zaro hamkorligisiz zamonaviy darslarni samarali tashkil etib bo'lmaydi.

METODLAR.

Pedagogik fanlarni o'qitishda o'quv maqsadiga samarali erishish uchun o'qituvchi unga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi kerak. Mana shu tayyorgarlik ishlaridan biri mashg'ulot uchun didaktik materiallar va vositalarni tayyorlash hisoblanadi. O'quv-didaktik materiallar va vositalarga muayyan fan bo'yicha o'qitish jarayonida qo'llaniladigan har qanday axborot tashuvchilar va jihozlar tushuniladi.

Pedagogik fanlarni faol metodlar asosida o'qitishda o'quv-didaktik materiallar sifatida nazariy darslarda matnli ko'rgazmali vositalardan, masalan, o'quv adabiyotlari, jadvallar, sxemalar, rasmlar, tarqatma materiallardan, amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv materiallari va topshiriqlar, uslubiy ko'rsatmalar, jihoz yoki asbobni ishlatish yoki laboratoriya ishlatish qoidalardan yo'riqnomalar bo'yicha foydalanilish tavsiya etiladi.

NATIJALAR

Ta'lim vositalari o'rganilish lozim bo'lgan o'quv materialni talabalar ongiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vositalar majmuasiga aytiladi. Ta'lim vositalarining xususiyatlariga ko'ra uch turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar.

Ta'lim vositalarining xususiyatlarga ko'ra matnli vositalar; tasvirli vositalar; audiovizual vositalar; yordamchi (jihoz) vositalar; modeli vositalar; haqiqiy vositalarga bo'lish mumkin.

MUNOZARA

Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar. Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanadilar. Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi [2].

Ta'limda elektron ta'lim resurslari, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda ularni ta'lim jarayoniga qo'llash masalalari R.A.Haitov, F.M.Zakirova, M.Aripov, J.A.Hamidov, O.X.Turakulov, N.I.Taylaqov, D.O.Ximmataliyev, Z.T.Raximov, M.M. Usanov va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

O'quv-didaktik vositalar va materiallar quyidagi olti guruhga ajratiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. O'quv-didaktik vositalar va materiallar

№	O'quv-didaktik vositalar guruhi	O'quv-didaktik vositalar tarkibi
1	Matnli ko'rgazmali materiallar	o'quv adabiyotlar, uslubiy ko'rsatmalar, tarqatma materiallar, sinov va nazorat varaqalari
2	Tasvirli ko'rgazmali	fotosuratlar, eskiz, chizma va sxemalar, ramziy



Date: 27th March-2025


	materiallar	tasvirlar, reja-jadvallar, simvollar, diagramma va grafiklar, rasmlar, plakatlar, slaydlar
3	Ovozli va tovushli vositalar	videofilmlar, kinofilmlar, dia-tovushli mahsulotlar, audio kassetalar, kompakt disklar (CD – Rom)
4	Mehnat sohasida ishlatiladigan asl narsalar va vositalar	jihozlar, qurilmalar, uskunalar, o'lchov asboblari, xom-ashyo va tayyor mahsulotlar
5	Modelli vositalar	modellar, maketlar, trenajyorlar
6	Elektron ta'lim resurslar va vositalari	elektron darsliklar, elektron ma'lumotnoma, elektron lug'at, virtual stendlar, kompyuterlar, videokrassvordlar

Bugungi kunda pedagogik fanlarni o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari multimedia va media vositalar hamda elektron resurslardan samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash uchun fanning har bir mavzusi o'quv materialiga mo'ljallangan didaktik vositalar: qo'llanmalar, virtual stendlar orqali murakkab texnologiyalarni qisqa vaqtda mukammal o'zlashtirish, o'quv-biluv jarayonini optimallashtirishga imkoniyat yaratadi. Elektron darslik va qo'llanmalarni masofali o'qitishda foydalanish mumkin. Har bir fanga mo'ljallangan elektron o'quv qo'llanma eng kamida uchta: ta'limiy, mashqli va nazorat qilish kabi asosiy qismlarga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy o'quv vositalardan ta'lim sohasida fan va texnikaning video, telekommunikatsiya va texnologiyalarning qo'llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg'ulotlarda ularni qo'llashni o'rganish bo'lajak o'qituvchilar uchun ularning kelajak faoliyatida katta yordam beradi. Didaktik vositalar bizga tanish, hayotimizda uchraydigan, xatto biz foydalanib yurgan vositalar bo'lishi mumkin.

Didaktik material tayyorlash uchun o'qituvchi avvalombor, mashg'ulotda bajariladigan o'quv vazifalarini rejalashtirib olishi kerak.

Pedagogik fanlarni o'qitishda quyidagi topshiriqlar foydali bo'lishi mumkin (1-rasmga qarang).



Date: 27th March-2025

1-rasm. Pedagogik fanlarni o‘qitishda topshiriqlar tizimi.

Shundan so‘ng rejadagi har bir ishni amalga oshirish uchun qanday didaktik materiallardan foydalanish kerakligi aniqlanadi. Bizga ma‘lumki, bugungi kunda ta‘limda qo‘llaniladigan didaktik materiallarning turlari juda ko‘p. Mavzu rejasidagi birinchi ishni bajarish uchun biz qanday didaktik materialdan foydalanishimiz mumkin. Buni mashg‘ulotning o‘quv maqsadidan kelib chiqib aniqlaymiz. Bunda talabalar amaliy ishning mazmuni va uni bajarish bosqichlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

Buning uchun esa talabalarni qisqa vaqt ichida yetarlicha axborotlar bilan ta‘minlash lozim. Bu ishni amalga oshirishda o‘qituvchi o‘quv muassasasi moddiy texnik bazasi va o‘zining qobiliyatlariga tayanib ushbu axborotlarni stand yoki kompyuterda tayyorlangan elektron material yordamida amalga oshirishi mumkin. Ikkala ko‘rinishdagi didaktik materialda ham amaliy ishning mazmunini beruvchi axborotlar, ishni bajarishga doir uslubiy ko‘rsatmalar va bajarish namunalari berilishi kerak.

Mavzu rejasidagi ikkinchi ishni amalga oshirish uchun quyidagicha didaktik material ishlab chiqish mumkin. Mashg‘ulotda bajariladigan amaliy ishlarga mos keluvchi, didaktik vositalarning o‘rnini bosuvchi va ta‘lim muassasasida mavjud bo‘lgan didaktik vositalarni tanlash o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Bunda o‘quv axborotlarining mazmuni va ko‘rinishi buzilmasligi kerak. Masalan, mavzuga oid slaydlarni kompyuter yordamida berish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ammo kompyuter bo‘lmasa, slaydni grafoproektor yordamida namoyish etish mumkin. Shunga o‘xshash o‘quv materialini video vositalar yoki kompyuter yordamida namoyish qilish, plakatni esa slayd bilan almashtirish mumkin. Muhimi o‘quv axboroti mazmuni buzilmasligi kerak.

Har bir bosqich bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi uchun shu bosqichdagi didaktik vositalar ham o‘zaro bir birini davomi sifatida to‘ldirib borishi kerak. Ya‘ni mashg‘ulotda qo‘llaniladigan didaktik vositalar o‘qitish texnologiyasining ajralmas bir qismi hisoblanib, ular bu jarayonning amalga oshishi uchun majmua sifatida xizmat qiladilar.

Ta‘lim jarayonida talabalarning individual qobiliyati va o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olish muhimdir.

Pedagogik fanlardan o‘qitish jarayonini didaktik vositalar va materiallardan foydalanib, darslar tashkil etilsa, talabaning aqliy qobiliyati, mustaqil fikrlashi va mehnat qila olishi, ta‘lim muassasasidan tashqari bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanishi, o‘z ishiga ijodiy yondashishi, kelajakda kasbiy yo‘nalish bo‘yicha muammolarni mustaqil hal qila olish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Shuningdek, virtual ko‘rgazmalardan foydalanish mumkin [3]. Zamonaviy virtual ko‘rgazmalar dasturiy mahsulotlar bo‘lib, ular bir-biridan tubdan farq qiladigan uch shakldagi dasturga ajratiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval. Zamonaviy virtual ko‘rgazmalar

Virtual ko‘rgazmalar	
Interaktiv namoyishlar	Ko‘p hollarda namoyishli dasturlar kompyuterli laboratoriya bo‘la olmaydi, chunki etarli interaktiv elementlarga ega bo‘lmaydi, lekin funksiyalarini tajriba o‘tkazish buyurtmasi bo‘yicha bajarishi mumkin. Ko‘p



Date: 27th March-2025

	hollarda bunday dasturlar o'quv materialini qabul qilish uchun qo'shimcha vosita sifatida elektron darslik qismi bo'lishi mumkin.
Universal laboratoriyalar	Agar uning imkoniyatlaridan bitta tajribada turlicha hodisalarni tajribadan o'tkazishda foydalanish imkoniyati bo'lsa, kompyuterli laboratoriyalar haqiqatda universal hisoblanadi. Universal laboratoriya-larni yaratish tajribali dasturchilar guruhi tomonidan, ko'p hollarda ilmiy yoik ishlab chiqarish bilan bog'liq modellashtirish tizimini tajriba sifatida qo'llab amalga oshiriladi
Oddiy modellar	Eng ko'p uchraydigan turi. Oddiy model odatda tajriba ishi modeli bo'ladi. Ba'zi belgilariga ko'ra birlashtirilgan oddiy modellar to'laqonli virtual kompyuter laboratoriyasi bo'ladigan tajriba ishlari to'plami bo'ladi. Bunday turdagi laboratoriyani keng tarqalganligi, ularni yaratish osonligida, chunki bitta yoki ikkita matematik ifoda bilan yoziladigan bitta oddiy jarayon ko'rib chiqiladi, turlicha laboratoriya ishlari esa bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda turli dasturchilar tomonidan bajarilishi mumkin. Bunday yondashuvni universal tizim yaratish shart bo'lmaganda, uncha katta bo'lmagan tajriba ishlari kursi yaratish uchun tavsiya qilinadi.

Xulosa. Shunday qilib, pedagogik fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida didaktik vositalar majmuidan foydalanish, birinchidan, o'rganadigan fanlar mazmunini yangi davr talablaridagi ma'lumotlar bilan to'ldirishni, manbalar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllanishiga amaliy yordam ko'rsatadi; ikkinchidan talabalarning o'quv didaktik va texnik tafakkurini shakllantirishga, zamonaviy texnika vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam bersa; uchinchidan, talaba-o'quvchilarning xotirasini, ijodiy qobiliyatlarini, jismoniy barkamolligini rivojlanishini ta'minlaydi; to'rtinchidan, didaktik vositalar majmuini mashg'ulotlarga keng qo'llashga o'qituvchi-professorlarni yo'naltiradi; beshinchidan, o'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish, mukammallashtirishning pedagogik asoslarini kuchaytiradi va o'qishning insonparvarlashtirish tamoyilini ro'yobga chiqarish orqali bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy salohiyati va kasbiy mahoratni oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Кравченя, Э.М. Технические средства обучения и методика их применения: методическое пособие / Э.М. Кравченя. – Минск: БНТУ, 2011. – 55 с
3. Abdullayev Q.F. Didaktik ta'lim vositalari talim jarayoni samaradorligini oshirish omili sifatida. <https://cyberleninka.ru/article/n/didaktik-ta-lim-vositalari-talim-jarayoni-samaradorligini-oshirish-omili-sifatida>

